

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI




Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar- mart

Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **25 775** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **2 177** taga kamaygan yoki **7,8 %** ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **15,0** birlikni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-mart holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Shahar va tumanlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **25 775** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 542** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahrida **6 850** tani yoki jamiga nisbatan **26,6 %** ni tashkil etdi.

1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbatan **12,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **1,3** birlikka kamaygan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **1 000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **31,3** birlik Buxoro sh. **23,6** birlik, Kogon tumanida **19,0** birlik, Kogon sh. **15,9** birlik, Romitan tumanida **16,6** birlikka yetdi.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1 000 aholiga nisbati, birlikda**

Eng yuqori ko‘rsatkich

Qorovulbozor tumani – 31,3 birlik.

O‘rtacha ko‘rsatkich


Buxoro tumani – 10,9 birlik.

Eng past ko‘rsatkich

Qorako‘l tumani – 8,0 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1 000 aholiga nisbati** shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **31,3** birlik, Buxoro shahrida **23,6** birlik, Kogon tumanida **19,0** birlik, Kogon shahrida **15,9** birlik, Romitan tumanida **16,6** birlik, Peshku shahrida **11,1** birlik, Buxoro tumanida **10,9** birlik, Jondor tumanida **11,3** birlik, Vobkent tumanida **10,3** birlik kuzatildi.

2023- yil yanvar- martida har 1 000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.		2023- y.
27	Olot	72
110	Buxoro	84
88	Vobkent	98
141	G‘ijduvon	122
87	Kogon	143
47	Qorako‘l	183
18	Qorovulbozor	33
55	Peshku	66
139	Romitan	159
109	Jondor	132
80	Shofirkon	73
288	Buxoro sh.	288
49	Kogon sh.	89

2023- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo‘yicha ulushi, % da



2023- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Buxoro shahri – **18,7 %**, Qorako‘l tumani – **11,9 %**, Kogon tumani – **9,3 %**, Romitan tumani – **10,3 %**, Jondor tumani – **8,6 %**, G‘ijduvon tumani – **7,9 %**, Vobkent tumani – **6,4 %**, hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Savdo

2022- y. 340 ta
2023- y. 500 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2022- y. 205 ta
2023- y. 213 ta

Sanoat

2022- y. 215 ta
2023- y. 224 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2022- y. 72 ta
2023- y. 96 ta

Qurilish

2022- y. 75 ta
2023- y. 76 ta

Axborot va aloqa

2022- y. 16 ta
2023- y. 47 ta

Tashish va saqlash

2022- y. 168 ta
2023- y. 236 ta


Boshqa xizmatlar

2022- y. 111 ta
2023- y. 129 ta

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2022- y. 36 ta
2023- y. 21 ta

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning 1- aprel holatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **500** ta, sanoatda **224** ta hamda tashish va saqlash **236** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning shaharlar va tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Buxoro shahrida **288**, ta G'ijduvon tumanida **122** ta, Kogon tumanida **143** ta hamda Romitan tumanida **159** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yillar davomida jami **7 956** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **2 655** ta (yoki **33,4 %**), xizmatlar sohasida **2 083** ta (yoki **26,2 %**), sanoat sohasida **1 599** ta (yoki **20,1 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **1 050** ta (yoki **13,2 %**) va qurilish sohasida **569** ta (yoki **7,2 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxona va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq-dan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	52	15,8
Parrandachilik	76	23,1
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	149	45,3
Sabzavotlar etishtirish	52	15,8
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	135	46,3
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	60	20,0
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	23	7,7
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	33	11,0
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	45	15,0
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	66	29,7
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	78	35,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	45	20,3
Qurilish loyihibalarini ishlab chiqish	18	8,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	15	6,7
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	332	40,1
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	215	25,6
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	63	7,6
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	120	14,5
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	98	11,8
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	74	9,3
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	152	19,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	157	19,8
Avtomobil transportida yuk tashish	370	46,7
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	39	4,9

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yilda barcha sohada yangi turdag'i kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'ngi 3 yilda eng ko'p xizmatlar sohasining avtomobil transportida yuk tashish yo'naliishida **370 ta** yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa xizmatlar sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **46,7 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish va ta'lim yo'naliishlarida ham ko'plab kichik korxona va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikataj mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'naliishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo’jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko’rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m



2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 327,2** mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (**369,1** mlrd. so‘m), Kogon tumani (**341,7** mlrd. so‘m), Shofirkon tumani (**240,5** mlrd. so‘m) va Buxoro tumani (**221,7** mlrd. so‘m) Jondor (**198,0** mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Romitan tumanida (**85,1** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar , %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yilning yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,7% ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kogon tumani (99,3%), Olot tumani (95,6 %), Buxoro tumani (94,9 %), Shofirkon tumani (89,2 %), Jondor tumani (84,7 %), Vobkent tumani (60,8 %), Qorako'l tumani (54,7 %), Buxoro shahri (50,5 %), Peshku tumani (38,3%) va Kogon sh (35,0 %) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 383,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,5 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,5 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (**337,2** mlrd. so'm), Gijduvon (**134,3** mlrd. so'm), Shofirkon (**95,2** mlrd. so'm), Buxoro (**130,5** mlrd. so'm), Peshku (**109,0** mlrd. so'm), Romitan (**102,0** mlrd. so'm) hamda Jondor (**111,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2018-2022 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



■hajmi, mlrd. so'm ■ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar- martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **2 051,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **54,5 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **195,8 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Qorako'l tumani (**433,2** mlrd.so'm), Buxoro tumani (**350,4** mlrd. so'm), Buxoro sh. (**284,4** mlrd. so'm), Peshku (**201,1** mlrd. so'm), Gijduvon (**234,4** mlrd. so'm), Kogon (**181,1**mlrd. so'm), Romitan (**145,1** mlrd. so'm) hamda Vobkent (**117,2** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mld. so'mda




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Buxoro (**468,3** mld. so'm), Jondor (**461,3** mld. so'm), Shofirkon (**383,3** mld. so'm), Romitan (**382,4** mld. so'm), Gijduvon (**358,9** mld. so'm) hamda Qorako'l (**332,1** mld. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **3 703,1** mld. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,3** foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **103,4** foizni tashkil qildi.

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023 yil yanvar –mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mld. so'mda




2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 135,7** mld. so'mni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **91,6 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **100,4 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar avlanmasi. mld. so'm

Buxoro sh.	840,5
Gijduvon	643,8
Qorako'l	288,4
Buxorol	250,6
Romitan	221,7
Jondor	215,7
Shofirkon	153,2
Vobkent	125,4
Kogon sh.	117,5
Olot	96,8
Qorovulbozor	81,1
Peshku	77,1
Kogon	23,9

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (**840,5** mld. so'm), Gijduvon (**643,8** mld. so'm), Qorako'l (**288,4** mld. so'm), Buxoro (**250,6** mld. so'm), Romitan (**221,7** mld. so'm) va Jondor (**215,7** mld. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatishi hajmi, mlrd. so‘mda



Buxoro sh.	628,0
G‘ijduvon	434,9
Jondor	177,4
Buxoro	177,0
Romitan	164,1
Peshku	155,0
Vobkent	153,9
Shofirkon	143,8
Qorako‘l	139,5
Olot	123,7
Kogon sh.	105,8
Kogon	105,5
Qorovulbozor	41,7

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 551,3 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **60,2** foizni tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **105,0** foizni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Buxoro shahri (**628,0** mlrd. so‘m), Gijduvon (**434,9** mlrd. so‘m), Jondor (**177,4** mlrd. so‘m), Buxoro (**170,0** mlrd. so‘m), Romitan (**164,1** mlrd. so‘m), Peshku (**155,0** mlrd. so‘m) va Vobkent (**153,9** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2023-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **35,9** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **56,9%** ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-martida shahar va tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng koʻp ulushi Olot, Buxoro, Kogon, Jondor va Shofirkon tumanlarda **-100%** Buxoro sh. – **70,8%**, Kogon sh. – **43,7%**, Qorakoʻl – **56,9%**, Romitan – **39,6%**, Gʻijduvon **20,2%**, eng past koʻrsatkich Vobkent tumanida – **10,3%** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **103,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **36,8%** ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi. % da


2023- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Olot – **100,0 %**, Buxoro – **100,0 %**, Vobkent – **96,9%**, Shofirkon – **99,6%**, Romitan – **99,1%**, Jondor – **98,7 %** ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




**Yuk
tashishda**



**Yuk
aylanmasida**



**Yo'lovchi
tashishda**



**Yo'lovchi
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,1%** ni tashkil etdi. 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **69,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,8 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,7%** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 268** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **416 (32,8 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **763 (60,2%)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **89 (7,0%)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **35,9 % (456 ta)**, xizmatlar sohasida – **32,4% (410 ta)**, sanoatda – **13,3% (169 ta)**, qurilishda – **9,7% (123 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **8,7 % (110 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro sh. (377 ta), G'ijduvon (146 ta), Buxoro (101 ta), Romitan (91 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **35,2 %** ni, sanoatda – **31,9 %** ni, xizmatlar sohasida – **33,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **75,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **60,2 %** ni, qurilishda – **59,3 %** ni, savdoda – **58,0 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – **11,0 %** ni, sanoatda – **8,3 %** ni, savdo sohasida – **6,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **53,8 %** ni, sanoatda – **58,0 %** ni, qurilishda – **53,7 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlarda – **48,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **46,4 %** ni, qurilishda – **43,9 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **2,9 %** ni, savdoda – **2,5 %** ni, qurilish va sanoatda – **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyl aylanmasi	37,9	46,3	7,6

Band bo‘lganlar soni	18,1	68,8	4,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,3	53,2	4,9
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	27,2	58,2	5,7
Raqobat muhiti	36,1	50	5,0


	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyl aylanmasi	48,6	48,3	3,0

Band bo‘lganlar soni	26,3	70,8	2,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,5	55,6	2,8
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	35,9	61,1	2,9
Raqobat muhiti	43,5	53,9	2,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



**2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



* Faqat raqobat muhitiga tegishli